 - совершенствование системы прогнозирования потребности в специалистах, проведение точного количественного, форсайт-анализа потребности в кадрах;
 - создание инновационной бизнес-культурной среды, создание высокотехнологичных производств, лабораторий, научных и образовательных центров;
 - формирование матрицы профессиональных компетенций по различным направлениям;
 - расширение возможностей корпоративного образования;
 - совершенствование структурной и технологической базы образования взрослых.

Литература

1. Блауг М. Шумпетер, Йозеф А. // 100 великих экономистов до Кейнса. — СПб.: Экономикс, 2008. — С. 333. — 352 с. — (Библиотека «Экономической школы», вып. 42). ISBN 978-5-903816-01-9.
2. Друкер П. Эпоха разрыва: Ориентиры для меняющегося общества. М.: Изд. дом «Вильямс», 2007. - 336 с.
3. Ибн Халдун. Ал-Муқаддима. http://www.muslimphilosophy.com/ik/Muqaddimah/Table_of_Contents.htm. (мурожаат санаси: 29.10. 2022 й.).
4. Корнетов, Г. Б. Парадигмы новых моделей образовательного процесса [Текст] / Г. Б. Корнетов // Педагогика. - 1999. - № 3. - С. 43-49.
5. Кун, Т. Структура научных революций. М.: ООО «Издательство АСТ», 2003. 365 с. С. 13.
6. Лакатос, И. Фальсификация и методология научно-исследовательских программ. - М.: Медиум, 1995. – 236.
7. Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США. М.: Прогресс, 1966. 462 с. - 77 стр.
8. Мид М. Культура и преемственность. Исследование конфликта между поколениями// Мид М. Культура и мир детства. М.: Наука, 1988. С 322-357.

9. Моҳира Холикова. XXI аср ахборот-таълим муҳитини ташкил этишнинг парадигмал аспекти. / Замонавий таълим. Илмий-услубий журнал. №5(102) 2021. - 3-8 б. ISSN 2181-6514.
10. М.Халикова. Ҳаёт давомида таълим парадигмаси ахборот жамиятининг муҳим детерминанти сифатида / Журнал социальных исследований, Том 6 № 1 (2023). 22-30 с.
11. Северин С. Н. Парадигмальные трансформации в науке в контексте постнеклассической культуры // Лингвокультурное образование в системе вузовской подготовки специалиста. 2016. т. 1. № 1 (9). с. 90-100.
12. Уэбстер Ф. Теории информационного общества. М.: Аспект Пресс, 2004. - 400 с.
13. Фейерабенд, Пол. Против метода. Очерк анархистской теории познания / Пер. с англ. А. Л. Никифорова. — М.: АСТ; Хранитель, 2007. — 413 с. ISBN 978-5-17-041128-3.
14. Хабермас, Ю. Техника и наука как «идеология» /Пер. с нем. М.Л.Хорькова. М.: Праксис, 2007. – 208 с.
15. Howe, Neil; Strauss, William (1991). Generations: The History of America's Future, 1584 to 2069. New York: William Morrow & Company. ISBN 978-0-688-11912-6.
16. Masuda, Yoneji. The information society as post-industrial society. Editorial Fundesco, 1984. С 327.
17. Popper, K. Normal Science and its Dangers // Criticism and the Growth of Knowledge. Cambr., 1970. P. 55–57.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13739728>

SOFTWARE

Sunatov Jo‘rabek Turg‘unbek o‘g‘li

Teacher of the University of Economics and Pedagogy

E-mail: jurabek.sunatov6666@mail.ru

Jo‘rayeva Ruqshona Orif qizi

Student of the University of Economics and Pedagogy

E-mail: raxmonovaxolisa021@gmail.com

Maxmanazarov Ozodbek Hamza o‘g‘li

Student of the University of Economics and Pedagogy

E-mail: ozodbekmaxmanazarov93@gmail.com

Baratova Munisa Rustam qizi

Student of Shakhrisabz State Pedagogical Institute

E-mail: baratovamunisa01@gmail.com

ANNOTATION

This article provides information about computer applications. It talks about the types of computer application software and why they are needed. Each of the applications is discussed separately and detailed information is given about them.

Keywords: *Software, application software, system programs, hardware programs, Microsoft Office programs, programming languages, operating systems, function, resource.*

An application is a specific program, which is designed to solve problems related to a certain problem area. One of the conditions for the effective application of computing techniques in practice is the creation of specialized packages of application programs. Their ease of access and ease of use create conditions for wider application of SSC to engineering work, solving specific tasks in the scientific field, economy, culture, and education [1].

Computer software means a set of programs executed by a computer system. Software is an integral part of a computer and is a logical continuation of hardware. The field of application of a specific computer is determined by the capabilities of the software created for it. Modern computer software can be divided into the following three categories:

Application programs directly ensure the performance of necessary tasks by users.

System programs provide various functions, for example: manage computer resources; makes copies of the information used; monitors the functionality of computer devices; provides information about the computer, etc.

Instrumental programs make it easy to create new programs for computers.

Considering that each of these categories includes thousands of programs, they can be divided into the following groups:

Application software includes: text editors, spreadsheets, graphic editor programs, database management system; integrated software package. Application software includes user-specific problem-specific application programs and application software packages designed for use in a specific problem area.

System software includes: operating systems and shells, testing and diagnostic programs, programs that serve external devices, such as collectors: archivers, antivirus programs.

Instrumental software includes: programming system (translators, part program library, etc.); a programming environment that facilitates the creation or development of programs.


System software and its tasks.

1. From the point of view of information systems, software means a set of software and documentation tools for creating a data processing system with computer tools and using them.

2. From the point of view of computer technology, software means system software that directly supports the operation of computing equipment and a set of "Application software" designed to solve practical problems.

3. General maintenance means implementation of operating systems and maintenance programs.

4. Software packages for the solution of problematic issues are developed and solved on a computer in the provision of special problems. Therefore, any economic process problems are solved through programming systems.



Picture 1. Classification of the software system.

Tasks of system software:

- System utilities. System utilities are designed to service computer hardware, especially carriers, operating systems, and other applications.
- Testing and diagnostic programs. These programs serve to check the performance of the computer and each of its nodes, to identify existing, occurring or potential failures.
- Programs serving collectors. A class of programs designed to serve disk drives and the information stored on them.
- Diagnostic programs identify and eliminate errors in the logical structure of information stored in disk drives.
- Defragmenter software arranges the placement of information on disks in such a way that the maximum speed of accessing or accessing them increases.

Operating system functions.

Operating system (OS) is a set of software tools that manage computer resources, load applications and interact with external devices and other programs, as well as provide user communication with the computer.

An operating system is a program that acts as an intermediary between the user and the computer, serving two purposes: efficient allocation of computer resources and enabling the user to work efficiently.

Computer resources include: processor time, main memory addressable bandwidth, input/output devices, files stored in external memory.

In conclusion, it can be said that computer software is constantly the most used programs. They are used in everyday work related to computers, in all enterprises, even in educational institutions. Because it is impossible to imagine using a computer without software.

Used literature.

1. Boboyor Umirov. Amaliy dasturlar paketi kursini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti. VOLUME 2 | CSPI CONFERENCE 3 | 2021.

2. Raxmonov, X., & Sunatov, J. R. (2022). O 'ZBEK TILI KOMPYUTER LINGVISTIKASI YO 'NALISHIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOTLAR. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).

3. Sunatov, J. R. (2023, December). TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O 'RNI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions"* (Vol. 1, No. 01).

4. Sunatov, J. R., Shamatova, G., & Maxmanazarov, O. (2024). TA'LIMDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH (MS POWERPOINT AMALIY DASTURIY TA'MINOT MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar*, (28).

5. Abduvaliyev, A. A., & Sunatov, J. T. (2024). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TREND MEZONIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 69-73.

6. Sunatov, J. R., Rustamov, R., & Dustmurodova, M. (2024). KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA FONETIK TAHLIL JARAYONI. *Modern Science and Research*, 3(5), 191-195.

7. Jurayev, O. M. o'g'li ., Suvonov, B. I. o'g'li ., & Xayriddinov, S. B. (2024). INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. *GOLDEN BRAIN*, 2(12), 105–108. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501150>

8. Jurayev, O. M. o'g'li ., Suvonov, B. I. o'g'li ., & Xayriddinov, S. B. (2024). PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH. *GOLDEN BRAIN*, 2(12), 100–104. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501095>

9. Asror o'g'li, A. O., & Rahmon o'g'li, S. E. (2024). TA'LIMGA VEB PLATFORMALARNI JORIY ETISHNI TAHLIL QILISH. *GOLDEN BRAIN*, 2(8), 92-97.

10. Sa'dullayev, A., & Asrorov, O. (2024). THE ESSENCE OF NEW PEDAGOGICAL TERMS DURING THE REFORMS IMPLEMENTED IN THE FIELD OF EDUCATION. " *Science Shine* " *International scientific journal*, 14(1).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13739750>

UO‘T: 631.68:633.511

**TURLI SUG‘ORISH TARTIBLARIDA YETISHTIRILGAN
MAKKAJO‘XORI NAV VA DURAGAYLARINING
O‘SISHI-RIVOJLANISHI**

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li

Toshkent davlat agrar universiteti “Dehqonchilik va melioratsiya” kafedrası
professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori

Isoyeva Laylo Baxtiyorovna

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o‘qituvchisi,
qishloq xo‘jaligi fanlari falsafa doktori

Gulmetov Odilbek Shavkat o‘g‘li, magistrant

Xudoykulov Sarvar Abdushukurovich, talaba

Muhammadov Mehriddin Fazliddin o‘g‘li, talaba

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoro viloyatining kuchsiz sho‘rlangan o‘tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida egatlab va tomchilatib sug‘orish agrotadbiri o‘tkazilgan makkajo‘xorining O‘zbekiston-601 ECB, NS-6010 F1 duragaylarini sug‘orish muddati, soni, me‘yori va turli sug‘orish tartiblari o‘tkazilishi natijasida makkajo‘xori o‘simligi o‘sishi-rivojlanishi bo‘yicha ma‘lumotlari keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** makkajo‘xori, duragay, sug‘orish, me‘yor, son, muddatlar, o‘sish-rivojlanish.*

Kirish. Dunyoda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatni hom-ashyoga, chorvachilikni esa to‘yimli ozuqaga bo‘lgan talabini qondirishda makkajo‘xori o‘simligining o‘rni yuqori hisoblanadi. Turli tuproq iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda o‘simlikni yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Makkajo‘xori ekini maydoni bo‘yicha dunyoda bug‘doy va sholidan keyingi uchinchi o‘rinni, yem-xashak ekinlar guruhida birinchi o‘rinni egallaydi. Bugungi kunda makkajo‘xori o‘simligi ekilgan maydon AQShda 22,5 mln., Xitoyda 20,6 mln., Braziliyada 11,8 mln. gektarni tashkil etadi va FAO ma‘lumotlariga ko‘ra,

ekinlar strukturasi makkajo'xori maydoni bug'doyga nisbatan AQShda 23 %, Avstraliyada 63 %, Germaniyada 70 %, Fransiyada 43 %, Rossiyada 3,5 % ko'p miqdorda joylashtirilgan bo'lib, hosildorligi o'rtacha gektariga 7-10 tonnani tashkil etadi.[1, 2]. Makkajo'xori o'simligi so'talari tarkibida qimmatli mikroelementlar miqdori 20 dan ko'p hisoblanadi. Makkajo'xori doni tarkibida foliy kislotasi va magniyga boy, muntazam iste'mol qilish inson tanasini kerakli miqdor bilan ta'minlashi aniqlangan. [3].

Makkajo'xori o'simligini yetishtirishda bargidan oziqlantirishda tajribada H₂O₂ 1,0% preparati bilan ishlov o'tkazilganda nazorat variantlariga qaraganda makkajo'xorining yashil massa, so'ta hosildorligi oshganligi aniqlangan. [4]. Makkajo'xori zararkunandalariga qarshi uyg'unlashgan kurashish bo'yicha zararkunandalarning populyatsiyasini boshqarishning barcha mavjud usullardan foydalanib hosil sifatini saqlash dolzarb muammolardan sanaladi. [5]. Butun dunyoda donli ekinlar orasida makkajo'xori o'simligi ko'p yetishtiriladi, umumiy maydoni 162 million gektar, 850 million tonnaga yaqin hosil, o'rtacha hosildorligi 5,2 tonna/ga, eng ko'p yetishtirilgan davlatlar Amerika, Xitoy hisoblanadi. [6].

Tadqiqot natijalari. Buxoro viloyatining Buxoro tumanida joylashgan "Zarif ota" fermer xo'jaligi tajriba dalalarida olib borilgan 2020-2022-yillar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra turli sug'orishlar bo'yicha olib borilgan makkajo'xori navlarining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi bo'yicha hamda yetishtirilgan donning sifat ko'rsakchilari bo'yicha olingan ma'lumotlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Turli sug'orish usullari bunda, oddiy egatlab sug'orish, suv tejankor tomchilatib sug'orish texnologiyalari bo'yicha yetishtirilgan O'zbekiston-601 ECB navi va NS-6010 F1 navi turli sug'orishlar bilan sug'orilgan bo'lib, bunda navlar bo'yicha o'sishi va rivojlanish ko'rsatkichlari 2020-yilda, cheklangan dala nam sig'imiga nisbatan sug'orish oldi tuproq namligi 70-75-70 % sug'orishda tuproqning hisobiy qatlami 0-70 sm bo'lganda, 01.05.2020 yilda o'simlikning bo'y balandligi o'lchanganda 42 sm ga teng bo'ldi, har oyning 1-sanasi fenologik va biometrik kuzatuvlar o'tkazilgan bo'lib nav bo'yicha 1-iyun sanasida 120 sm ga, 1-iyul sanasida 190 sm, 1-avgust sanasidagi kuzatuvlarda esa 225 sm hamda sentabr oyining 1-sanasi 248 sm ga teng bo'lganligi kuzatildi. Sug'orishlar oddiy egatlab qo'llanilgan lekin, sug'orish oldi tuproq namligi 70-80-75% tartib bo'yicha sug'orishda tuproqning hisobiy qatlami 0-70 sm tajribaning 2-variantda yuqorida keltirilgan sanalarga mos holda dala sharoitidagi hisob-kitoblar 45, 125, 197, 231 va 1-sentabr oyi bo'yicha esa 258 sm bo'lganligi kuzatildi. Egatlab sug'orish o'tkazilgan makkajo'xori o'simligining NS-6010 F1 navi 3-4 variantlarda o'rganilgan bo'lib, bunda olib borilgan tadqiqotlar o'simlikning bo'y balandlik ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lganligi

aniqlandi. Bunda sug'orish oldi tuproq namliklari 3-variantda 70-75-70 %, 4-variantda 70-80-75 % xar ikkala variantda sug'orishda tuproqning hisobiy qatlamlari bo'yicha olib borilgan fenologik, biometrik kuzatuvlar bo'yicha tajribaning 3-variantida dastlabki may oyining 1-sanasidan, 1-sentabrgacha bo'lgan oylar kesimida 39, 129, 194, 231 va 252 sm bo'lganligi tajriba natijalarida qayd etilgan. Tajribaning 4-varianti bo'yicha kuzatuvlar natijasi quyidagicha bo'lib, bunda 41, 127, 191, 229 va 257 sm bo'y balandliklari qayd etilgan. Olib borilgan ilmiy izlanishlarining tajriba variantlarida 5, 6, 7, 8-variantlarda sug'orish ishlari tomchilatib sug'orilgan, 5 va 6-variantlarda O'zbekiston-601 ECB navi, 7 hamda 8-variantlarda esa NS-6010 F1 navi ekilgan 2020 yilda olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, suv tejamkor variantlarda makkajo'xori navlarining o'sishi va rivojlanish dinamikasi ko'rsatkichlariga ta'siri quyidagicha tahlillarda sug'orish oldi tuproq namligi 75-75-70% sug'orish oldi tuproq namligi esa egatlab sug'orishdan farqli ya'ni barcha variantlarda 0-50sm hisobiy qatlam bo'yicha sug'orish ishlari amalga oshirildi. Tajriba olib borilgan 5-variantda 1-may oyi bo'yicha 48 sm keyingi oylarda 141, 201, 234 va 259 sm bo'ldi, 6-variant bo'yicha olingan tahlilarga ko'ra 52, 136, 199, 237 va sentabr oyida 261 sm bo'ldi. NS-6010 F1 navi tomchilatib sug'orilganda 7-variantda 58, 146, 208, 246 va 267 sm bo'ldi xuddi shu sanalar bo'yicha tajribaning sug'orish oldi tuproq namligi 70-80-75% sug'orish oldi tuproqning hisobiy qatlami esa 0-50 sm sug'orilganda tajribaning 8-variantida 1-mayda 46 sm bo'lgan. Keyingi oylar bo'yicha tahlil qilinganda 139, 213, 242 va 261 sm bo'lganligi tajribada aniqlangan.

Xulosa. Buxoro viloyatining kuchsiz sho'rlangan o'tloqi alyuviall tuproqlari sharoitida makkajo'xori duragaylarini turli sug'orish tartiblari ya'ni egatlab va tomchilatib sug'orishlar bo'yicha tajribalar o'tkazilgan bo'lib, O'zbekiston-601 ECB naviga nisbatan NS-6010 F1 duragayi sug'orish oldi tuproq namligi 70-80-75% bo'yicha tomchilatib sug'orish amalga oshirilgan variantda bo'y balandligi yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Atabayeva X.N., Xudoyqulov J.B. – O'simlikshunoslik - T., 2018, B.255-256.
2. Xudoyqulov J.B, Azizov Q.K va boshqalar// Makkajo'xori yetishtirish// Agrobank 100 ta kitob to'plami 24-kitob–Toshkent-2021 Tasvir nashriyoti-Colorpack MChJ- B. 40.
3. Azizov K.K., Japparov A.A., Axmedov A.J //Aholi xonadonlarida qo'shekin sifatida shirin makkajo'xori va loviya yetishtirish bo'yicha tavsiya- Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini-Ilmiy-amaliy jurnal–2024-yil, №2. B.146-147.
4. Rashidova D.K, Mamedov N.M., Yakubov M.M //Makkajo'xori duragayining o'sish va rivojlanishiga bargidan oziqlantirishning ta'siri// Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini-Ilmiy-amaliy jurnal –2024-yil, №2. B.149-151.
5. Akromov B.A //Makkajo'xori va oqjo'xori zararkunandalari va ularga qarshi kurash//Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini-Ilmiy-amaliy jurnal –2024 yil, №2. B.41-46
6. Mashrabov M.I., Qozoqboyev S.S //Tipik bo'z tuproqlar sharoitida makkajo'xoridan yuqori hosil olish imkoniyati –Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini-Ilmiy-amaliy jurnal–2024-yil, №2. B.147-149.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13739768>

IXTISOSLASHGAN MAKTABLARDA MASALALAR TUZISH VA ULARNI YECHISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Shahobiddin Mirzaraimovich Qirg'izov,

Andijon Davlat Universiteti kimyo fanlari doktori, professor.

Zulfizarxon Sharobiddin qizi Kamoldinova,

Andijon Davlat Universiteti Kimyo ta'lim yo'nalishi I bosqich magistranti.

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ixtisoslashgan maktablarda kimyo o'qitishni rivojlantirish maqsadida 7-sinf kimyo darsligiga kiritilishi mumkin bo'lgan ba'zi masalalar va ularni yechimlari keltirilgan.*

***Kalit so'zlar.** Modda, natriy, kaliy, metallar, qotishma, moddamiqdori, massaulushi, proporsiya, katalizator, suyuqlik, kristall.*

***Аннотация.** В данной статье представлены некоторые вопросы и их решения, которые могут быть включены в учебник химии для 7 класса с целью развития преподавания химии в профильных школах.*

***Ключевые слова.** Вещество, натрий, калий, металлы, сплав, количество вещества, массовая доля, пропорция, катализатор, жидкость, кристалл.*

***Annotation.** This article presents some issues and their solutions that can be included in the 7th grade chemistry textbook in order to develop chemistry teaching in specialized schools.*

***Keywords.** Substance, sodium, potassium, metals, alloy, substance amount, mass fraction, proportion, catalyst, liquid, crystal.*

Ixtisoslashtirilgan maktablarda kimyo fanlarini o'qitishga qo'yiladigan asosiy talab - o'quvchilarning kimyoviy bilimlarni chuqur egallashlariga erishishdir. Bu esa o'z navbatida kimyo fanini o'qitishda nazariy hamda amaliy bilimlarni masalalar hamda tajribalar orqali o'rgatishni talab qiladi. Davlat ta'lim standartlari bo'yicha tuzilgan 7-sinf kimyo kitobi jami VIII ta bobdan iborat bo'lib biz ushbu boblar bo'yicha umumlashtirilgan nazariy va hisoblashga doir ba'zi namunaviy masalalarni o'quvchilar bilimini oshirishda foydalanishni taklif etamiz. Dastavval nazariy holatda ishlanadigan masalalardan namunalar va ularning

yechimlarini ko'rib chiqamiz. Bunday masalalar yordamida o'quvchiningna faqat nazariy balki amaliy bilimlarini ham tekshirib olishimiz mumkin. Chunki, agarda o'quvchi nazariy bilimlarni puxta egallagan bo'lsa, ularni amaliy jihatdan to'g'ri va aniq holatda qo'llayoladi. Shu sababdan bunday masalalarga faqat har bir bobning so'ngida balki, har bir mavzuning ohirida berib borilishi kerak deb o'ylaymiz. Quyida esa nazariy masalalardan ayrim namunalar va ularning yechimlari berib o'tilgan:

1-Masala. Qaysi moddalar yonayotganda ularni suv bilan o'chirib bo'lmaydi?

Javob: Suv bilan reaksiyaga kirishib ketadigan moddalarni odatda suv bilan o'chirib bo'lmaydi, masalan natriy, kaliy kabi aktiv metallarni suv bilan o'chirish notog'ri.

2-Masala. Mis va ruxdan iborat qotishma tarozida o'lchab ko'rilganda massasi 10 kg keladi. Agar ushbu qotishma tarkibida 35% mis borligi ma'lum bo'lsa, qotishmadagi ruxning mol miqdorini aniqlang?

Yechim: Agar jami qotishmaning massasi 10 kg bo'lsa biz misning massa ulushidan foydalangan holda ruxning massa ulushini hisoblaymiz.

$100\% - 35\% = 65\%$, demak qotishmamiz tarkibida 65% Zn mavjud ekan.

Proporsiya orqali uning massasini aniqlaymiz.

10 kg qotishma jami 100% bo'lsa ,

X kg Zn 65% bo'ladi.

$$x = \frac{10\text{kg} \cdot 65\%}{100\%} \quad X = 0.65 \text{ kg yoki } 650 \text{ g}$$

$N = \frac{m}{M_r}$ ushbu formuladan foydalangan holda ruxning mol miqdorini hisoblaymiz

$$N = \frac{650}{65} = 10 \text{ mol}$$

Demak javob ushbu qotishma tarkibida 10 mol rux mavjud ekan.

3-Masala. Muhokaviy masala. Qadrli o'quvchilar siz kundalik turmushda qaysi katalizatorlardan foydalanasiz?

Yechim: Ushbu masalada o'qituvchi o'quvchilarni fikriga asosan ushbu nazariy masalani yechimini aytadi

4-Masala. Kundalik hayotda ishlatadigan nam salftkalarimizda pH qiymati 5,5 ni tashkil etadi. Bu holat undagi muhitning qanday ekanligini ko'rsatadi?

Yechim: pH modda eritmasining qanchalik kislotali yoki asosli ekanligini ko'rsatadi. Agar pH qiymati 7ga teng bo'lsa eritmaning neytral ekanligi, agar 7dan kichik qiymatga ega bo'lsa kislotali, 7dan katta bo'lsa ishqoriy tabiatda ega bo'ladi. Demak nam salftkada muhit kuchsiz kislotali ekan.

5-Masala. Nima sababdan avvallari uy-rozg'or jihozlarini yuvishda kuldan foydalanilgan? Va yog'ochning yonishidan hosil bo'luvchi ushbu chiqindi kulni xalq xo'jaligida qanday maqsadda ishlatish mumkin?

Yechim: Avvallari sintetik yuvish vositalari ishlab chiqarilmagan vaqtda kulning ishqoriylik xossasiga tayanib yuvuvchi vosita sifatida ishlatilgan. Kul ya'ni potash K_2CO_3 da o'simliklar uchun zarur ozuqa elementi kaliy bo'lganligi uchun mineral og'it sifatida foydalanishimiz mumkin.

6-Masala. Ko'z yoshlari nima sababdan sho'r?

Yechimi: Inson ko'z yoshi tarkibi 99% suv, 0.8% osh tuzi, 0,1% natriy karbonat va 0.1% oqsillardan iborat. Ko'z yosh tarkibida osh tuzi va natriy karbonat tuzlaridan iboratligi uchun ko'z yoshi sho'r bo'ladi.

7-Masala.

- I. 1ta vodorod atomi.
- II. 1ta vodorod molekulasi
- III. 1 mol vodorod molekulasi.

Yuqori berilgan moddalarni massalari ortib borish tartibida joylashtiring.

Yechim . III, II, I

8-Masala. X modda odatdagi sharoitda ko'k rangga ega, suyiltirilganda to'q binafsha rangli suyuqlik, qattiq holatda quyuc ko'k deyarli qora kristalldir. Ushbu modda yer atmosferasida qancha massada mavjud?

Yechim. X modda bu ozon bo'lib, u yer atmosferasidagi miqdori 4 mlrd tonnaga teng.

Ushbu ma'lumot va masalalar 7-sinf kimyo darsligi asosida tuzildi.

Xulosa. Ushbu masalalar boblar so'nggida o'quvchilar bilimini tekshirish va takrorlash, ixtisoslashtirilgan maktablarda kimyodan masalalar yechishni takomillashtirish uchun tavsiya etiladi, yuqorida berilgan barcha masalalar 7-sinf o'quvchilarini mantiqiy fikrlashini oshirishga xizmat qiladi. O'ylaymanki ushbu maqola o'quvchilarni biroz bo'lsada tegishli mavzularni mukammal tushunishga yordam beradi. Maktablarda bir necha yillardan beri o'qitishda shakllantirilgan, tajribadan muvaffaqiyatlari bilan o'tgan kimyo fanining asosiy nazariy masalalari, elementlar kimyosi, organik kimyo mazmunlarini saqlagan holda respublikaning tabiiy kimyoviy zaxiralari va ulardan mahsulotlar ishlab chiqarish kabi mavzularda o'quvchilar onggini oshirishga xizmat qiluvchi nazariy masalalar ahamiyati juda katta. Maktablarda kimyo fanini o'qitishda asosiy talab o'quvchilarning kimyoviy bilimlarning egallashning eng muhim vositasi – o'qitilayotgan mavzuni tushuntirishda kimyoviy tajribalardan foydalanilgan tajribaviy masalalarning ham ahamiyati katta

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kimyo o‘qitish metodikasi. H. *Rahmatullayev, M. Omonov*. Toshkent 2013.
2. 7- sinf kimyo darslik. *I.Asqarov, K.G‘opirov, N. To‘xtaboyev*. O‘zbekiston 2023.
3. Muftaxov A., Omonov X, Mirzayev R. Umumiy kimyo. 11-sinfuchun darslik. T., «O‘qituvchi». 2002
4. *Omonov H., Mirvoxidova M.* Kimyo metodologiyasi va metodikasining ayrim masalalari. O‘quv qo‘llanma. T., Nizomiy normidagi TDPU, 2003.
5. *Abdullayev Sh. V.* O‘zbekiston kimyogadari. Uslubiy qo‘llanma. Namangan. NamDU, 2006.
6. *Omonov H., Mirvoxidova M.* Kimyogar olimlarning faoliyati bilan tanishtirish - o‘quvchilarni qiziqtirish va tarbiyalashning muhim omilidir. T., «Bilim». 1992.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13739782>

PAXTA XOM ASHYOSI TARKIBIDAN OG‘IR ARALASHMALARNI TUTIB QOLUVCHI TOSHTUTGICH QURILMASINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI

A.Obidov, S.Xusanov, I.Ibroximov

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

E-mail: aobidov@list.ru

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada paxta tozalash korxonalarida mavjud bo‘lgan paxta xomashyosi tarkibidagi og‘ir aralashmalarni tutib qoladigan qurilmalar tahlili va ularni takomillashtirish yo‘llari keltirilgan. Bundan tashqari, qiyosiy o‘rganish uchun xorijiy korxonalarda qo‘llanilayotgan uskunalarning holati ham tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida paxta tarkibidagi og‘ir aralashmalarning texnologik jarayonda ishlaydigan qurilmalar ish organlariga salbiy ta‘siri o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Paxta, paxta tozalash, og‘ir aralashmalar, qurilma, shikastlanish, ishchi organlar, quvur, pnevmotransport, takomillashtirish, samaradorlik.*

Bugungi kunda paxta tozalash korxonalarida eng asosiy muommalardan biri bu – paxta tarkibida uchraydigan har-xil iflosliklar, og‘ir aralashmalar va chigitli paxtani shikastlanish hollaridir. Paxtaga dastlabki ishlov berish vaqtida paxta xom ashyosining tozalash va chigitdan tolani ajratish jarayonlariga yuborishda paxta bilan birga og‘ir jismlarni texnologik jarayonga o‘tib ketib mashinalar yong‘in sodir bo‘lishi, texnologik mashinalarni ishchi organlarining shikastlanish xollari sodir bo‘ladi. Bu esa o‘z-o‘zidan tola sifatini yomonlashuviga va paxtani dastlabki qayta ishlash xissadorlik jamiyatining uzliksiz ishlash jarayoniga salbiy ta‘sir qiladi. Bundan tashqari paxtani tozalash mashinalarini ishlash jarayonida energetika tejamkorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek ish unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirish muhim o‘rin egallaydi [1,2].


Birinchi havo yordamida tashuvchi qurilma 1893 yilda Dorfman tomonidan kemalardan donni tushirish uchun qo‘llanilgan. Qurilmaning foydali ish koeffitsiyenti kichik bo‘lib, ko‘p energiya sarf qilgan. Shunday bo‘lishiga qaramay u don tushirish uchun Yevropada keng qo‘llandi. Chunki, havo yordamida tashuvchi qurilma mexanik transportyorlarga qaraganda qator ustunliklarga ega edi.

Pnevmotransport asta sekin donni qayta ishlash, kimyo, qurilish sohalarida ham muvaffaqiyat bilan qo‘llana boshlandi [3]. Fan va texnikaning rivojlanishi

pnevмотransport uskunalarining qo‘llanish sohalarini yanada kengaytirdi. Jumladan, tashiluvchi materialni kapsulalarga joylab, pnevmo uskunalarda tashish [4] usullarining paydo bo‘lishi bu sohada yangi taraqqiyot istiqbollari ochib berdi.

Paxtani korxonada tashishda asosan so‘ruvchi turdagi pnevмотransportdan foydalanilishi to‘g‘risida avvalroq aytib o‘tgan edik. So‘ruvchi pnevмотransportning afzallik tomoni – ishchi havo quvuri tizimini paxta tozalash korxonalarining g‘aramlar saqlanadigan maydonlari joylashishiga qarab qiyinchiliklarsiz, osonlik bilan o‘zgartirish imkoni borligida, uning uzunligini boshlang‘ich havo quvurlariga qo‘shimcha havo quvurlarini ulash yo‘li bilan uzaytirish mumkinligidadir. Pnevмотransportning ish unumi paxta tozalash korxonasining ishlab chiqarish quvvati, ya‘ni, bir soatda qayta ishlanadigan paxta xomashyosi miqdoriga bog‘liq bo‘lib, soatiga o‘rtacha 10 tonnani tashkil qiladi.


Chet mamlakatlarda, asosan, AQSH paxta tozalash texnologiyasidan foydalaniladi. Bu texnologiyada ham paxta ishlab chiqarishga pnevмотransport uskunasini yordamida uzatib beriladi (1-rasm).



1-rasm. AQSH paxta tozalash texnologiyasi pnevмотransport tizimi

Bu uskunaning o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, unda paxta modullarini buzish va ishlatiladigan havoni qizdirish tizimi mavjud. Bu tizim texnologiyaga paxtani kerakli unumdorlik va bir me‘yorda hamda ma‘lum darajada qizdirib uzatish imkonini beradi. Natijada, paxta tashish jarayonida ma‘lum darajada quriydi. Shu bilan birga, paxtani qizdirish undan iflosliklarning yaxshi ajralishini ta‘minlaydi.

Bu xususiyatdan mamlakatimiz paxta sanoatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘zbek paxta sanoatida qo‘llanadigan pnevмотransport sxemasi 2-rasmda keltirilgan bo‘lib, u ham AQSH pnevmotizimi kabi tuzilishga ega.




2-rasm. Paxta tozlash korxonalarini pnevmotransport uskunasini

- 1-Paxtani mexanik uzatuvchi uskuna;
2- yordamchi lentali transportyor; 3-ishchi havo quvuri;
4- toshutgich; 5-chig'anoq; 6-diffuzor; 7- separator; 8- so'ruvchi havo o'tkazgich;
9-kollektor; 10-drossel; 11-ventilyator; 12-chiqaruvchi havo o'tkazgich; 13-siklon;
14-elektr yuritkich; 15-tirkama;16-g'ildirak

Paxta tozalash korxonalaridagi texnologik jarayonga o'rnatilgan jihozlar samaradorligini oshirishga, ularning uzluksiz ishlashiga paxtaning tarkibi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Paxta tarkibidagi og'ir aralashmalar uni qayta ishlash vaqtida tozalovchi mashinalarni ishchi qismlarining xamda jin va linterlarning arralari tishlarining shikastlanishiga sabab bo'ladi. Bunday o'zgarish jin mashinasida chigitdan tolani ajratib olish paytida chigit va tolalarning shikastlanishiga olib keladi.

Paxtani tozalovchi mashinalarda esa tozalash samaradorligining pasayishiga, xamda chiqindilar tarkibiga paxta bo'lakchalarining ko'proq qo'shib ketishiga sababchi bo'ladi. Bundan tashqari og'ir aralashmalar qayta ishlovchi mashinalarning metalli ishchi organlariga urilishi natijasida yong'in chiqib ketishiga ham sababchi bo'ladi. Shu sababli, og'ir aralashmalarning paxtani qayta ishlovchi mashinalar ishchi kameralariga tushib qolishi doimo shu soha olimlari va ishlab chiqarishdagi mutaxassislarining diqqat-e'tiborida bo'lgan va ular og'ir aralashmalarni havo yordamida tashuvchi qurilmada to'la ushlab qolish yo'llarini qidirganlar.

D.L.Kelbert paxtani tozalovchi, jin va linter mashinalarining arra tishlarida chigitdan tolani ajratish jarayonida yong'in chiqish sabablarini aniqlagan. Bunga asosan og'ir aralashmalar tarkibidagi metall parchalari (mix, gayka, shayba) sababchi ekanligi aniqlangan.



3-rasm. Tosh va metall jismlar ta'sirida arralarning shikastlanishi:

a) tishlarning egilish holati, b) tishlarning egilish va sinish holati

T.D.Maxametov o'zining ilmiy tadqiqot ishida linter va jin mashinalarda arra tishlarining sinish sabablarini o'rgangan. Mualliflar [5] tomonidan o'tkazilgan tajribalar arra tishlarining shikastlanishiga jinning ishchi kamerasiga tasodifiy tushib qolgan metall bo'lakchalari sababchi bo'lganini ko'rsatgan. (3-rasm.)

Paxta tozalash korxonalarida og'ir aralashmalarni ajratib olish uchun texnologik jarayonda chiziqli toshtutgichlar keng qo'llaniladi. Chiziqli toshtutgichlarning boshqa toshtutgichlardan qator afzalliklari bor, ular tuzilishining oddiyligi, ishlatishga qulayligi, kam harajatliligi va ishonchliligidadir.

Lekin bugungi kunda chiziqli toshtutgichlarning har xil konstruktsiyalari mavjud bo'lishiga qaramasdan, bu soha olim va mutaxassislarining tadqiqotlari hozirgi vaqtda yetarli samara beradigan uskunaning yo'qligini, borlari esa talabga javob bermasligini ko'rsatdi.

Bundan kelib chiqqan holda, hozirda yangi, yuqori samarali toshtutgichlarni ishlab chiqish va uni paxta tozalash korxonalarining texnologik jarayoniga tadbiiq qilish juda zarur.

Og'ir aralashmalarni paxta tarkibidan ajratib oluvchi qurilmalarning tuzilishini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish ko'pincha keng doiradagi olimlar tomonidan o'tkazilayotgan tadqiqotlar natijasiga bog'liq.


Ular paxta bilan aralashib harakatlanayotgan og'ir aralashmalarni titish yo'li bilan qurilmalarning samaradorligini oshirishda zarur bo'lgan qonuniyatlarni qidirib topish yo'lida bir qator izlanishlar olib borgan. Ular paxta va og'ir aralashmalarning fizik-mexanik va aerodinamik xususiyatlarni inobatga olgan holda toshtutgich qurilmalarining ishchi organlari va ularning geometrik ko'rsatkichlarining eng samarali turlarini qidirishgan [6].

Paxta tayyorlash sur'atining o'sishi, paxtani qayta ishlash sanoati oldiga ishlab chiqarish kuvvatlarini oshirish, uskunalarining unumdorligini ko'tarish, mahsulot sifatini yaxshilash vazifasini qo'ymoqda. Bu vazifalar ijrosi, hududda o'rnatiladigan havo yordamida tashuvchi qurilma ishiga ko'proq bog'liqdir. Chunki, u to'g'ridan-

to'g'ri paxta tozalash korxonasining uzluksiz texnologik jarayoniga qo'shilib, uning dastlabki va ish sur'atini belgilab beruvchi muhim qismi bo'lib hisoblanadi.

O'rnatiladigan joyiga qarab ikki turga bo'linadi. Birinchisi chiziqli toshtutgichlar, deyiladi. Ular havo yordamida tashuvchi qurilmaning chizig'ida joylashgan bo'lib, separatorgacha o'rnatiladi. Ikkinchisi chiziqli bo'lmagan toshtutgichlar bo'lib, ular separator dan keyin o'rnatiladi.

Paxta tozalash korxonalarida keng tarqalgan chiziqli tosh tushgichlar bilan tanishib chiqamiz. Dastlab havo yordamida tashuvchi qurilmaning gorizontal joylashgan quvuri vertikal yo'nalishdagi holatga o'tish joyiga o'rnatiladigan toshtutgichning konstruktsiyasi bilan tanishasiz.



4- rasm. Radial toshtutgich.

1-kirish quvuri, 2-ajratish kamerasi, 3-cho'ntak, 4-chiqish quvuri.

Yuqoridagi toshtutgich (4-rasm) asosan kirish quvuri (1), ajratish kamerasi (2), cho'ntak (3), chiqish quvuri (4) dan tashkil topgan.

Bu toshtutgich quyidagiga ishlaydi: havo yordamida tashuvchi qurilmada so'ruvchi havo yordamida tashib keltirilayotgan paxta va uning tarkibidagi og'ir aralashmalar kirish quvuri orqali ajratish kamerasiga kiradi va tezligi bir oz pasaygan holda ajratish kamerasing devorlariga uriladi. Natijada paxta tarkibidan og'ir aralashmalar pastga cho'ntakka tushadi.

Og'ir aralashmalardan tozalangan paxta chiqish quvuri orqali havo oqimi yordami o'z yo'nalishni davom ettiradi.

Bu toshtutgichning og'ir aralashmalarni ushlab qolish samaradorligi past – 60 foiz atrofida bo'lganligi sababli uning tuzilishini takomillashtirish ustida ilmiy izlanishlar olib borildi.

Hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida mavjud toshtutgich qurilmalari konstruksiyalarini takomillashtirish orqali texnologik jarayon samaradorligini, ish unumdorligini oshirish, paxta xomashyosining sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu borada qator nazariy va amaliy ishlar olib borilmoqda.

Toshtutgich qurilmalarida mavjud muammolarining bartaraf qilish maqsadida yangi takomillashgan toshtutgich qurilmasi konstruksiyasini ishlab chiqildi. Taklif qilinayotgan toshtutgich qurilmasining takomillashgan konstruksiyasida paxta xom ashyosi elastik asosga o'rnatilgan to'rt yuzaga urilib keyingi jarayonga uzatilishi, paxta tarkibidan ajralgan og'ir aralashmalar esa cho'ntak orqali tashqariga uzluksiz tarzda chiqib ketishi ta'minlanadi. Natijada chigitlarning shikastlanishidan saqlab qolinadi va to'rt tarkibidagi turli xil nuqsonlarni kamayishiga va to'rt sifatini yaxshilanishiga olib keladi.

Mazkur qurilma boyicha hozirgi kunda nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar \ References

1. Мурадов Р., Бойтураев У. Выделение тяжёлых примесей из хлопка-сырца в камнеуловитель. Дел. в УзНИИНТИ, 1986. № 523-Уз.
2. Хасанов М.Р. Повышение эффективности технологической надёжности элементов пневмотранспортных систем хлопка. Диссертация кандидата технических наук. Ташкент, 1989.
3. Мурадов Р., Саримсаков О.Ш. Уловитель тяжёлых примесей из хлопка-сырца. Ташкент УзНТИ, информационный листок № 640, 1988.
4. Х.Т.Ахмедходжаев, О.Маматқулов. Toshkent to'qimachilik va engil sanoati instituti. "Ko'p cho'ntakli toshtutgi". 2011 yil.
5. Djamolov R.K., Kholyigitov Sh. Effective structure for catching stones and other heavy bodies in cotton. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. Vol 11 Issue 02, Feb 2022. ISSN 2456 – 5083. www.ijiemr.org.
6. Qosimov X.X. Yangi toshtutgich qurilmasi konstruksiyasini yaratish va ishlab chiqarishga joriy qilish. Avt. Diss. PhD. Namangan-2022 y.

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	Eshonqulov, J. S. o'g'li ., Isoyeva, L. B., Gulmetov, O. S. o'g'li ., Xudoykulov, S. A., & Muhammadov, M. F. o'g'li . (2024). TURLI SUG'ORISH TARTIBLARIDA YETISHTIRILGAN MAKKAJO'XORI NAVLARINING SO'TA VA 1000 DONA DON VAZNI. Educational research in universal sciences, 3(8), 4–7. https://doi.org/10.5281/zenodo.13739569
2	Baxridinov, Z. S. (2024). ZIRHLI MASHINALARNI MO'LJALGA OLISH MOSLAMASINING MATEMATIK-STATISTIK BAHOLASH. Educational research in universal sciences, 3(8), 8–15. https://doi.org/10.5281/zenodo.13739604
3	Ochilov, I. S., & Sultonov, S. A. (2024). SAUTBOY-SARITOV MA'DAN TUGUNIDA OLTIN-NODIR METALL MA'DANLASHUVI JOYLASHISHI QONUNIYATLARI. Educational research in universal sciences, 3(8), 16–21. https://doi.org/10.5281/zenodo.13739626
4	Mirzayev, F. S. o'g'li ., & Raimov, A. L. o'g'li . (2024). DIFFUZIYA TENGLAMASINING FUNDAMENTAL YECHIMI VA UNING XOSSALARI. Educational research in universal sciences, 3(8), 22–25. https://doi.org/10.5281/zenodo.13739639
5	Ураков, Ш. У. (2024). МЕТОД ОРГАНИЗАЦИИ ВИРТУАЛЬНОГО МЕДИЦИНСКОГО КОНСИЛИУМА. Educational research in universal sciences, 3(8), 26–32. https://doi.org/10.5281/zenodo.13739666
6	Набиева, Н. В., & Бобоев, С. Г. (2024). САМЫЕ РАСПРОСТРАНЕННЫЕ СОРТА ТОМАТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ. Educational research in universal sciences, 3(8), 33–38. https://doi.org/10.5281/zenodo.13739675

7

Халикова, М., Джалилова, М., & Шаймарданов, А. (2024). СТРАТЕГИЯ ПАРАДИГМЫ ОБРАЗОВАНИЯ НА ПРОТЯЖЕНИИ ВСЕЙ ЖИЗНИ КАК ДЕТЕРМИНАНТ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА.

Educational research in universal sciences, 3(8), 39–46.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13739707>

8

Sunatov, J. T. o'g'li ., Jo'rayeva, R. O. qizi ., Maxmanazarov, O. H. o'g'li ., & Baratova, M. R. qizi . (2024). SOFTWARE. Educational Research in Universal Sciences, 3(8), 47–50. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13739728>

9

Eshonqulov, J. S. o'g'li ., Isoyeva, L. B., Gulmetov, O. S. o'g'li ., Xudoykulov, S. A., & Muhammadov, M. F. o'g'li . (2024). TURLI SUG'ORISH TARTIBLARIDA YETISHTIRILGAN MAKKAJO'XORI NAV VA DURAGAYLARINING O'SISHI-RIVOJLANISHI. Educational research in universal sciences, 3(8), 51–54. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13739750>

10

Qirg'izov, S. M., & Kamoldinova, Z. S. qizi . (2024). IXTISOSLASHGAN MAKTABLARDA MASALALAR TUZISH VA ULARNI YECHISHNI TAKOMILLASHTIRISH. Educational research in universal sciences, 3(8), 55–58. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13739768>

11

Obidov, A., Xusanov, S., & Ibroximov, I. (2024). PAXTA XOM ASHYOSI TARKIBIDAN OG'IR ARALASHMALARNI TUTIB QOLUVCHI TOSHTUTGICH QURILMASINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI. Educational research in universal sciences, 3(8), 59–64.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13739782>